



THE NATURE OF THE SANGZOR BASIN AND ITS PROTECTION MECHANISMS

D. Akhmedova

Student

*Jizzakh State Pedagogical University
Jizzakh, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Sangzor basin, mountain range depression, Bakhmal district, unique natural-geographical, ecological conditions, actual problem, anthropogenic factor, vegetation period of plants, degradation.

Abstract: In this article, the peculiarities of the nature of the Sangzor basin, its color and the factors affecting them are studied and analyzed.

Received: 18.04.23

Accepted: 20.04.23

Published: 22.04.23

SANGZOR HAVZASI TABIATI VA UNI MUHOFAZA QILISH MEXANIZMLARI

D. Ahmedova

Talaba

*Jizzax davlat pedagogika universiteti
Jizzax, O‘zbekiston*

МАҚОЛА HAQIDA

Kalit so‘zlar: Sangzor havzasi, tog‘ oralig‘i botig‘i, Baxmal tumani, noyob tabiiy-geografik, ekologik sharoit, aktual muammo, antropogen omil, o‘simliklarning vegitasiya davri, degradatsiya.

Annatotsiya: Mazkur maqolada, Sangzor havzasi tabiatining o‘ziga xos xususiyatlari, rang-barngligi va ularga ta’sir etuvchi omillar o‘rganilgan va tahlil qilingan.

ПРИРОДА САНГЗОРСКОЙ КОТЛОВИНЫ И ЕЕ ЗАЩИТНЫЕ МЕХАНИЗМЫ

Д. Ахмедова

Студент

*Джиззакский государственный педагогический университет
Джиззак, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Сангзорская котловина, котловина хребта, Бахмальский район, уникальные природно-географические, экологические условия,

Аннотация: В данной статье изучены и проанализированы особенности природы Сангзорской котловины, ее цвет и влияющие на них факторы.

актуальная проблема, антропогенный фактор, вегетационный период растений, деградация.

KIRISH

Sangzor havzasasi Turkiston tizmasining shimolida joylashgan bo‘lib, orogidrografik jihatdan Sirdaryo havzasiga qaraydi. Sangzor daryosi havzasasi Sangzor tog‘ oralig‘idagi botig‘iga to‘g‘ri kelib, Molguzar tizmasining janubiy yonbag‘ri bilan Chumqortog‘ tizmasining shimoliy yonbag‘ri oralig‘ida joylashgan. Sangzor havzasasi g‘arbda Turkiston tizmasining shimoliy yonbag‘ri Guralash dovonidan 2870 m dan boshlanib shimol va shimoli-g‘arbga qarab cho‘zilgan. Daryoning havzasasi ham shu yo‘nalishga qarab 80 km dan ortiqroq uzunlikda cho‘zilgan. Daryo havzasining eng keng joyining eni 15-20 km bo‘lib, boshlanishida uning keng joyi 700-800 m gacha to‘g‘ri keladi. Sangzor daryosining havzasasi noto‘g‘ri cho‘zilgan uchburchak shaklini eslatib, uning eng baland nuqtasi 1500 m, quyi qismida esa 650 m dan 550 m gacha tashkil qiladi.

ASOSIY QISM

Sangzor havzasasi ma’muriy jihatdan janubda (Turkiston tizmasining suvayirchi bo‘lib) Tojikiston respublikasi, shimoliy-sharqda Jizzax viloyatining Zomin tumani, g‘arbda Samarqand viloyatining Bulung‘ur tumanlari bilan tutashgan. Eng shimoliy-g‘arbda esa G‘allaorol tumanini o‘z ichiga oladi. Sangzor havzasining asosiy qismini Baxmal tumani hududi egallaydi. Bu ajoyib daryo havzasasi maydonining asosiy qismini qamrab olgan mashhur Baxmal tumani noyob tabiiy-geografik va ekologik sharoitlarga egadir.

Sangzor havzasasi uchburchak ko‘rinishda Molguzar va Turkiston tog‘lari orasida joylashgan. Uning yuqori qismi tor (2-3 km), quyi qismi esa 15-20 km, uzun va shu yo‘nalishda qiyalashib boradi. U Balx qishlog‘i atrofida birmuncha qiyalashib, baland tekislik qiyofasiga ega bo‘lsada, so‘ngra shimolga burilib, yana torayadi va Amir Temur (Ilon o‘tdi) darvozasi deb ataluvchi tor daraga aylanadi. Keyin Jizzax vohasiga qo‘silib ketadi. Havzaning geomorfologiyasi maxsus tarzda o‘rganilmagan bo‘lsada, ayrim tabiiy-geografik jarayonlar olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Havzaning adirlari yuzasi vaqtincha va doimiy oqar suvlar errozion va akkumulyativ faoliyati natijasida kuchli parchalangan, jarlanish va suffoziya keng tarqalgan. Havzadagi Molguzar tog‘i 70 km masofaga cho‘zilsada, uncha baland emas (2600 m), Chumqor tog‘i xususan Turkiston tog‘i 75 km bo‘lib, uning balandliklari 2000-3500 m. Tog‘ yonbag‘irlari qisqa, lekin chuqur eroziya chiziqlari bilan keskin parchalangan bo‘lib, soylarning bosh qismlarini egallaganlar.

Sangzor havzasasi uzoq geologik bosqichlarda yirik o‘ng irmoq sifatida Zarafshon daryosiga oqar edi, deb ta’kidlaydi P. Baratov. Alp burmalanish davrida havza qayta ko‘tarila boshladi. Turkiston tog‘ tizmasi va uning yonbag‘irlarini tashkil etuvchi Marjonbuluoq va Kampirrovot

balandliklari Sangzor daryosi havzasini suvayi tarzida Zarafshon daryosidan ajratib qo‘yadi va u o‘z oqimini shimal tomonga o‘zgartirib, Sirdaryo havzasi tomon yo‘nalish oladi. Hozirgi Turkiston va Nurota tizma tog‘larini bir-birlaridan ajratib turuvchi Amir Temur darvozasi (Ilono‘tti darasi) deb ataluvchi tor dara Sangzor daryosining Turkiston va Nurota tizmalarini tutashgan egarsimon past joyini tobora yemira borishi oqibatida neogen davrining boshida hosil bo‘ldi.

Sangzor havzasi ichki suvlarini gidrologik jihatdan V.A. Shuls, R. Mashrapov ma’lumotlaridan foydalanildi. Gidrologiyasini esa N.I. Plotnikov, G.G. Volkov, R.P. Kim va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan. Havzaning asosiy suv yig‘uvchi daryosi Sangzordir. U G‘uralash va Jonteka tog‘ soylarining qo‘shilishidan hosil bo‘ladi. To‘yinish tipiga ko‘ra qor-yomg‘irdan hosil bo‘luvchi guruhga mansub, suv yig‘uvchi havzasi 2526 km².

Sangzor havzasi iqlim xususiyatlarini bir qancha olimlar tadqiq etganlar. B.P. Alisovning ko‘rsatishiga binoan Sangzor havzasi subtropik mintaqaning eng shimoliy qismlarini tashkil etadi. Shu boisdan uning asosiy iqlim ko‘rsatkichlari havoning quruqligi, radiatsiya miqdorining yuqoriligi, ob-havoning mavsumiy o‘zgarishi subtropik xususiyatlarga yaqindir. G‘allaorol atrofida (22 iyun, ya’ni eng uzoq kun) quyosh usfqdan 74⁰ balandda turadi. Buning natijasida quyosh yoritadigan davr ham birmuncha uzoq bo‘ladi. Sangzor havzasi iqlim sharoitining shakllanishida havo omillarining harakati ham muhim rol o‘ynaydi. Yoz fasllari hudud kuchli, tez isiydi va bu yerda mahalliy kontinental tropik havo tarkib topadi. Havoning tobora qizib borishi tufayli hududda termik depressiya vujudga keladi. Natijada, bu yerga shimoldan va g‘arbdan havo massalarini o‘ziga tortib oladi. Ammo, bu havo massalari Sangzor daryosi havzasi havo haroratini kuchli o‘zgartira olmaydi. Chunki, kelgan havo massalari qizigan yer yuzi ta’sirida tez isiydi, nisbiy namligi kamayadi, kondensatsiya jarayonlari qiyinlashadi. Shuning uchun vodiyning etak, ya’ni tekislik qismida (G‘allaorol botig‘i) bulutsiz, yog‘insiz ob-havo vujudga keladi. Harorat ham bir muncha pasayib, oldingiga nisbatan 3-5⁰ C dan 10⁰ C gacha tushib ketadi. Bu jarayon Sangzor havzasining tog‘li qismlarida birmuncha namgarchilik bilan kechishi mumkin.

Sangzor havzasining daryosi 1300 m balandlikga ega bo‘lgan hududlarida (Baxmal meteoposti) da havo haroratining o‘rtacha yillik ko‘rsatkichi yillar aro o‘zgarib tursada, ushbu ko‘rsatkichlar aro farq 2⁰ C atrofida kuzatilish mumkin. Eng sovuq oy yanvar, eng issiq oy iyul.

Havo namligi ham o‘simliklar qoplaming shakllanishida muhim iqlimi omil hisoblanadi. Dengiz sathidan 1300 m balandliklarda havo namligining o‘rtacha oylik ko‘rsatkichining eng yuqorisi 810-840 mb yanvar oyi bo‘yicha, eng past ko‘rsatkichi 320 dan 280 mb iyul oyida kuzatilgan.

XULOSA

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinish turubdiki, Sangzor havzasasi tabiatini rang-barang va maftunkordir. Sangzor havzasasi tabiatini sof holda saqlab qolish, bugungi kunning eng aktual muammolardan hisoblanadi.

Hozirgi kunda Sangzor havzasida o'simlik olami tabiiy va antropogen omillar ta'sirida degradatsiyaga uchrab bormoqda. Jumladan, so'ngi yillarda iqlimning qurg'oqchil kelishi hisobiga o'simliklarning vegitasiya davri qisqarib, yo'z faslining o'rtalariga borib qovjirab qola boshladi. Bu holat o'simliklarning urug'lanishiga ham salbiy ta'sir qilmoqda.

So'ngi yillarda Sangzor havzasidagi aholi sonining dinamik ravishda o'sib borishi kuzatilmoqda. Natijada, aholi sonini o'sishi hisobiga atrof-muhitga bo'lgan turli darajadagi omillar ta'siri ortib bormoqda. Sangzor havzasida olib borgan kuzatishlar natijasida daryoning yuqori, o'rta va quyi oqimlarida antropogen omillarning ta'siri bir-biridan farq qilishini ko'rshimiz mumkin. Yuqori oqimida dam olish va chorvachilik, o'rta oqimida dehqonchilik va chorvachilik, quyi oqimida dehqonchilik va qum-shag'al qazib olish orqali havza tabiatiga kuchli ta'sir ko'rsatilmoqda. Buning oqibatida nafaqat o'simliklar, balki tuproqlar ham zarar ko'rmoqda.

Sangzor havzasining tuproqlari haqida ma'lumotlar N.A. Butskov, T.D. Jumabaev, M.A. Pankov tomonidan o'rganilgan va "O'zbekiston tuproqlari" nomli monografiyada ham keltirilgan. Ularning fikrlariga ko'ra, havzada murakkab relyef tuzilishi, tuproq hosil qiluvchi ona jinslarning turli tarzda o'zgarib turishi, iqlim xususiyatlarining bir xil emasligi, o'simliklar qoplaming turli darajada uchrashi va nihoyat antropogen ta'sir tufayli tuproq hosil bo'lish jarayoni bir xil kechmaydi. Shu boisdan balandlik mintaqalarining o'zgara borishi bilan tuproq qoplaming ham sezilarli tarzda almashinishi va quyidagicha tabaqlanish kuzatiladi:

Madaniy tuproqlar - Sangzor havzasining sug'oriladigan hududlari bo'y lab sug'oriladigan - bo'z yoki tipik bo'z tuproq turlariga xos bo'lib, uzoq yillar davomida antropogen ta'sir tufayli mexanik tarkibi kuchli o'zgargan, natijada madaniylashgan qatlamaq hosil qilgandir. Hozir bu hudud to'liq o'zlashtirilgan.

O'tloq tuproqlar - Sangzor daryosi o'zani bo'y lab rivojlangan birinchi va ikkinchi tartibli terrasalari - qayirlari va uning yon tarmoqlari bo'lgan soylar yo'nalishi bo'yicha ham davom etadi. Yil bo'yi bu hudud bo'y lab grunt suvining sathi yuzaga yaqin bo'lganligi tufayli o'tloqlarning rivojlanishi va chirish jarayonining tezlashuvi hamda gumus miqdorining oshishi uchun eng qulay sharoit mavjuddir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alibekov L.A. Inson va tabiat. Darslik. Samarqand: SamDU, 2020 y
2. Baratov P. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. Toshkent., "O'qituvchi", 1996 y.

3. Hakimov Q, G‘o‘dalov M. Jizzax viloyati geografiyasi. Jizzax: “Sangzor”, 2004 4. G‘o‘dalov M. R. Jizzax viloyati tabiatni muhofaza qilish. - T.: “Fan va texnologiya”, 2014 y
4. G‘o‘dalov M.R., Muxamedov O.L. Tabiatni muhofaza qilish: muammo va yechimlar. Guliston 2021
5. Gudalov, M., & Imamova, D. (2020). Development Of Ecoturism In Aydar-Arnasay Lakes System And Its Surroundings. *The American Journal of Applied sciences*, 2(10), 150-153.
6. 7.Gudalov, M. (2022). Айдар-Арнасой кўллар тизимида сув ҳажмининг ўзгариши ва атроф-мухитга таъсири. *Journal of Geography and Natural Resources*, 1(1).
7. Nematov, O. (2022). Heavy industry infrastructure in Jizzakh province: achievements, problems and solutions. *International journal of history and political sciences*, 2(11), 41-44.